

“OILADA AYOLNING O'RNI VA FARZANDLAR OLDIDAGI OTA-ONANING BURJI”

Farg'ona viloyati Qo'qon shahar MMTB tasarrufidagi

42-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Aripova Nigora Ravshanjon qizi

Annotasiya: Mazkur maqolada oila muqaddas dargoh, uni mustahkamligini saqlash oila a'zolarining burchi va vazifasi ekanligi haqida aytilgan. Farzandga to'g'ri tarbiya berishda ota onalarning o'rni beqiyos, chunki har bir bolaning individual psixologik xusu siyatlari o'ziga xos bo'lib, ular alohida yondashuvni talab etadi.

Kalit so'zlar: oila,qadriyat, urf odatlar, bola shaxsi, munosabat, milliy stereotib, qarashlar, bola hulqi.

Oila muqaddas dargoh, uni osoyishtaligi va mustahkamligini saqlash oila a'zolarining burchi va vazifasi hisoblanadi. Farzandga to'g'ri tarbiya berish, ularning ahil-inoqligi, bir-biriga ishonchi, o'zaro hurmati, e'tiborliligi yoki kelajakda daho bo'lishida ota-onalarning o'rni beqiyos, chunki har bir bolaning individual psixologik xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, ular alohida yondashuvni talab etadi. “O'nta bo'lsa, o'rni - qirqta bo'lsa, qilig'i boshqa” - deb, bekorga aytishmagan, dono xalqimiz.

Darhaqiqat, oilada bolalarning xarakterlari har xil bo'ladi, ota-onalar bolaning xarakter xususiyatidan kelib chiqib munosabat o'rnatadi. Bolaning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, bola kun tartibini shunday rejlashtirish kerakki, kun davomida bolaning bo'sh vaqt qolmasin, chunki bola bo'sh qoldi deguncha, vaqtini bekorchi narsalarga sarflaydi. Buning uchun bola kun tartibini tuzishda ko'maklashish, mazmunli tashkil etish yuzasidan maslahatlar berish, nazoratga olish, amalga oshirilgan ishlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash lozim, chunki har bir rag'bat bolada o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Farzand tarbiyasi ota-ona bergan tarbiyaga qarab baholanadi.

Jumladan, “Bola boshidan!”, “Seni tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-onangga rahmat!” yoki aksincha “Nima eksang, shuni o’rasan!”, “Vaqting ketdi, naqding ketdi!”, “Sayoq yoursang, tayoq yeysan!” kabi hikmatli so’zlarni bejiz ishlatishmaydi. Haqiqatdan ham, farzandning odobli yoki odobsiz bo’lishida ota-onsa, maktab jamoasi, mahallaning o’rni kattadir. Shunday ekan, farzand tarbiyasiga faqat ota-onsa mas’ul bo’lib qolmasdan, balki butun mahalla, maktabda faoliyat yuritayotgan barcha maktab jamoasi hamkorlikda ish olib borsa, maqsadga muvofiq bo’ladi, chunki farzand tarbiyasi – bu oila, jamiyat, millat tarbiyasi.

Darhaqiqat, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan 2012 yilni “Mustahkam oila yili”, joriy yilni “Obod turmush yili” deb e’lon qilinishi har bfuqaroning oila, jamiyat va xalq oldidagi burch hamda ma’suliyatini yanada oshirdi, chunki, “Bir bolaga, yetti qo’shni ota-onadir!” deb bekorga aytilmagan. Bola “o’tish yoshi”da tashqi taassurotlarga tez beriladi, agar ota-onsa tomonidan nazorat susaytirilgan yoki o’rnatilmagan bo’lsa, bolaning maktabga, fanlarni o’zlashtirishga bo’lgan qiziqishi pasayadi, oila a’zolariga munosabati o’zgaradi, o’zi bilmagan, sezmagan holida “ko’cha bolalari”ga qo’shilishi mumkin. To’g’ri, ota-onsa farzandiga hech qachon yomonlikni ravo ko’rmaydi, aksincha, kelajakda yaxshi inson, yaxshi kasb egasi bo’lsin, deb yaxshi niyatlar qilishadi. Jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda odamlarning dunyoqarashi, fikrashi o’zgardi, ota-onalar farzandining qiziqish, qobiliyatiga qarab mutaxassislardan maslahat oladigan, ular bilimini mustahkamlash uchun malakali repetitorlar xizmatidan foydalanadigan bo’lishdi.

Shuning bilan bir qatorda ba’zi oilalarda bolalarga bo’lgan e’tiborsiz va loqaydlik nosog’lom muhitning yuzaga kelishiga sabab bo’lmoqda va bu bola ruhiyatiga o’z ta’sirini ko’rsatmay qo’ymaydi. Jumladan, ota-onaning bolalari oldida janjallahuvni, spirtli ichimlik iste’mol qilishi, bir-biriga hurmatsizlik, qo’pol muomalasi, bolaning kamgap, qo’rroq, jizzaki, odamovi bo’lishiga cabab bo’ladi, natijada ko’pchilik oldida hatto yoshi ulg’ayganda ham, fikrini bayon etishga qiynaladi, eng achinarlisi, bola oiladan ko’ra ko’proq ko’chada bo’lishni afzal ko’radi.

Oilada har bir farzandning qiziqishi, qobiliyat va layoqati turlicha bo’ladi. Masalan, ba’zi bolalar borki, yoshligidan biror bir kasbga qiziqadilar, ba’zilari esa, kechikibroq kasb tanlaydilar. Ota-onaning vazifasi farzandi biror-bir kasbni tanlamagan bo’lsa, farzandining

qiziqish, qobiliyat, imkoniyatiga qarab, mehnat bozoridagi talablarning rivojlanishi, hozirgi kundagi mavjud va yangi kasblar, mutaxassisliklar to'g'risida ma'lumotlar berish orqali mustaqil kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashishlari lozim. Shuning bilan birga, samarali kasb-hunarga yo'naltirishda sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari va to'garak rahbarlari bilan hamkorlik o'rnatish o'quvchining aniq bir kasbni tanlashiga va qat'iy qaror qabul qilishiga yordam beradi. Qissadan hissa qilib shuni aytish mumkinki, oila tinch bo'lsa, yurtimiz tinch, jamiyatimiz farovon bo'ladi, oila poydevori mustahkam bo'lsa, jamiyatimiz mustahkam bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ota-onalar uchun quyidagilar tavsiya etiladi: - bola kun tartibini tuzishida ko'maklashing va uni nazoratga oling; - bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish yuzasidan maslahatlar bering; - kunlik ishi yuzasidan hisobot talab qiling va nazoratga oling; - bajargan ishini rag'batlantirib, sen bundan ham yaxshisiga qodirсан, irodangga ishonaman, deb uni qo'llab-quvvatlab turing; - sinf rahbari, fan o'qituvchilari bilan hamkorlik o'rnatining; - bolangizning qiziqish, qobiliyat, layoqatini o'rganining; - biror-bir kasbni tanlamagan bo'lsa, kasb tanlashiga ko'maklashing; - tanlagan kasbi bo'yicha maslahatlar bering; - bolangizning yaqin o'rtoqlari kimlar, ular bilan tanishing, o'rtoqlari va ularning ota-onalari bilansuhbatlashing; - oila a'zolaringiz oldida bolangizga tanbeh bermang; - bolangizga akauka yoki opa-singlisini maqtab, sen ham xuddi ulardek bo'l, ulardan o'rnak ol, deya ko'rmang, bolada siz maqtagan shaxsga nisbatan nafrat uyg'onishiga sabab bo'lasiz; - hech qachon bolangizga baqirmang, unga qo'l ko'tarmang, aks holda munosabatlaringizga darz ketib, bola jizzaki bo'lishi, siz buyurgan ishning teskarisini qilishi mumkin; - bolangizning faqat kunlik harajatlariga yetarli pul ajrating, bolangiz o'rganada hamda har bir narsani qadrlashni o'rganadi.

Ayollar har doim moslashuvchan aql va ayyorlik bilan ajralib turganlar. Ko'pgina hukmdorlar ushbu fazilatlar tufayli taxtga intilishgan. Ba'zi ayollar erlarini shu qadar avrashga qodir ediki, voqeа ularning senariysi bo'yicha qurilgan. Ukrainalik qiz Roksolana bunga misol bo'la oladi. U o'zining aql-zakovati va go'zalligi tufayli sharqiy hukmdorning sevimli xotini bo'lib, oldingisini orqa fonga surib qo'ygan. U nafaqat xotin, balki do'st ham bo'ldi, bu Sharqiy oilalarda kam uchraydi. U uning eng yaqin maslahatchisi edi va eri

tatarlarning sobiq asiri va kanizagi Roksolana unga maslahat bergen hamma ishni qilgan. Tarixida unga o'xshash kuchli va qudratli ayol hukmdorlar ko'p bo'lgan.

Zamonaviy jamiyatdagi uy bekasi rolini tanlagan ayolning mavqeい, qoida tariqasida, bugungi kunda eng yaxshi tomondan ko'rib chiqilmaydi. Albatta, ba'zi hollarda, ayol faqat o'choq saqllovchisi va erining sodiq do'sti sifatida harakat qilishdan juda mamnun. Ammo ko'pincha bu tanlov turmush o'rtog'ining xarakteriga xos xudbinlik, egalik, rashk va boshqalar kabi xususiyatlarga bog'liq. Barkamol avlodni tarbiyalashda, avvalo, oila muhitini, oila ma'naviyatini yuksaltirish, ayollarga hurmat va e'tiborni yanada kuchaytirish bugungi kun talablaridan biridir. CHunki kelajagimiz bo'lgan yosh ma'naviy barkamol avlod mana shu oilaviy muhitda, shu oiladagi tarbiya tufayli voyaga etadi. Oilada masalan: qo'ni-qo'shnini ko'rolmaslik, fisqu fasod, ig'vo muhiti hukmron bo'lsa, hech shubhasiz, bolaning xotirasida tuzatib bo'lmaydigan og'ir asoratlar qoldirar ekan. Umuman aytganda, oilaviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag'ritosh bo'lib voyaga etishini O'zbekistonda yashayotgan har bir ota-onadek buyuk sharafga ega bo'lgan insonlar to'g'ri anglab tushunib olmoqlari zarurdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oila tinchligini saqlash va mustahkamlash uchun bola tug'ilganidan boshlab unga ta'lim va tarbiya berishi haqida o'ylashimiz kerak. Shu jumladan, har bir ota-onada kelajakda mamlakatimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan farzandni tarbiyalashni o'zining munosib burchi va vazifasi deb bilmog'i lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. "O'zbekiston", 2016.B.146.
2. Jalolov H. Oila, mahalla va mакtab hamkorligi. Tarbiya. №2 (6), 2006. B.13
3. С.Хантингтон. Запад: уникальность, а не универсальность. Манба: <http://www.russ.Ru/jurnal> 97,10-15
4. M.Q.Raxmanova, B.B.Mirjalilova O'quvchilar ijtimoiy faolligini oshirish – ijtimoiy zaruriyat sifatida. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021 www.ares.uz
5. Хошимова Д., Ниязова Н., Ардатова Е.В. Академическая Публицистика // Академическая Публицистика Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Аэтерна". – С.140-146. <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>.

6. Y.J.E.Usarov, M.Q.Raxmanova Yoshlarning intellektual salohiyati va faolligini rivojlantirishda pedagogik psixologik omillari/ Fan, Ta'lim va amaliyotintegratsiyasi
ISSN: 2181-1776 2021 №4 Aprel